

Uzbekistan Airways talabalar uchun chegirmalarni uzaytirdi

2022 7 Yanvar

2021/2022-o'quv yilining ikkinchi yarmini to'liq va puxta tayyorgarlik ko'rgan holda boshlash maqsadida oliy va professional ta'lim muassasalari, akademik litsey talaba-o'quvchilari uchun qishki ta'til muddati 2022-yil 24-yanvarga qadar uzaytirilgani bois "Uzbekistan Airways" AJ 23-yanvarga qadar talabalar uchun respublika bo'ylab amalga oshiriladigan ichki reyslarga 50% chegirma muddatini uzaytirdi.

10.01.2022ga qadar chegirma asosida xarid qilingan aviachiptalar 23-yanvargacha rejalashtirilgan reyslarga bepul qayta bron qilinadi.

Shuningdek, aviakompaniya joriy yilning 20 – 23-yanvar kunlari qo'shimcha reyslarni amalga oshiradi.

Batafsil ma'lumot bilan www.uzairways.com rasmiy saytida tanishishingiz mumkin.

Telegram: t.me/uzbekistanairways